

"TASDIQLAYMAN"

Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasi bosh vrachi

S.Xo'jamqulov

2022 yil



Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasi

TEXNIK TOPSHIRIQ

T/P	Bo`lim nomi	Bo`limga izohlar
1	Buyurtmachi	Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasi
2	Obyekt nomi	Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasiga qarashli Jilvon OSHP ko`cha qismini yo`laklarini joriy ta'mirlash
3	Tanlash hujjatlarini electron shaklda yuklab olish manzillari:	https://etender.uzex.uz maxsus axborot portalidan yuklab olishlari mumkin
4	Tanlash takliflarini taqdim qilish muddatlari:	https://etender.uzex.uz maxsus axborot portalida taqdim etishning oxirgi ko`rsatilgan muddat yakuniga qadar.
5	Tanlash hujjatining tili:	O`zbek ,rus tillarida
6	Tanlash takliflarini berish:	https://etender.uzex.uz maxsus axborot portalida e`lon muddati davomida
7	Tanlash takliflarini ko`rib chiqish:	https://etender.uzex.uz maxsus axborot portal orqali
8	Standartlarga rioya qilish talabları	Davlat standartlari
9	Ishlarni bajarish muddati	30 kun davomida
10	Moliyalashtirish manbai	Byudjet mablag`lari hisobidan
11	Buyurtmachining talablari	-ishlab turgan asosiy vositalar, shu jumladan ishlab chiqarish bazasi, mashina va mexanizmlar(ijara shartnomasi), kichik mexanizatsiya va boshqalarga ega bo`lishi; -ishtirokchi korxonaning ustav fondi, ko`char va ko`chmas mulklari va umumiy ma'lumotlar; -ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo`lgan mehnat resurslari va mutaxassislarining mavjudligi; -shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar; tanlov ob`ektiga o`xshash ob`ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi; -o`z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to`g`risidagi ma'lumotlar; tanlov ob`ektida o`z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo`ljallanayotgan hajmi (50 foizdan kam bo`lmagan xolda); - https://etender.uzex.uz maxsus axborot portalida buyurtmachi tomonidan ko`rsatib o`tilgan talablar;
12	Buyurtmachining obyekt bo`yicha boshlang`ich narxi:	QQS bilan 52 033 536 cým.
13	Buyurtmachi tomonidan belgilangan qurilish muddati	30 kalendar kun
14	Ta`mirlashni moliyalashtirish tartibi:	Shartnomaga asosan

"TASDIQLAYMAN"

Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasi bosh vrachi

S.Xo'jamqulov

" 2022 yil



"Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasiga qarashli
Jil von OSHP ko`cha qismini yo`laklarini joriy ta'mirlash."

T A N L O V H U J J A T I

Buxoro- 2022 yil

Tanlov xujjalarning mazmuni:

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomma
- II. Texnik qism
- III. Narxlar qismi

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1. TANLOV PREDMETI

1. Tanlov predmeti: "Buxoro viloyati Shofirkon tuman Tibbiyot Birlashmasiga qarashli Jilvon OSHP ko'cha qismini yo'laklarini joriy ta 'mirlash."
- 1.1 Texnik topshiriq bo'yicha talablar 4-punktda ko'rsatib o'tilgan.
- 1.2 Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan bajaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.
- 1.3 Ishlarni boshlash muddati avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab xisoblanadi.

2. TANLOV TASHKILOTCHILARI

- 2.1. Shofirkon tuman Tibbiyot birlashmasi, (bundan keyin - "Buyurtmachi" deb ataladi) -tanlov tashkilotchisi hisoblanadi.
"Buyurtmachi" manzili: Shofirkon tuman Navruz kuchasi №117 uy
- 2.2. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlardan o'tkazish bo'yicha tuzilgan xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi
- 2.3. Tanlov _____
- "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3. TANLOV ISHTIROKCHILARI

- 3.1. Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, tajribaga ega bo'lган barcha yuridik maqomga ega bo'lган tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.
- 3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar quyiladi:
ishlab turgan asosiy vositalar, shu jumladan ishlab chiqarish bazasi, mashina va mexanizmlar (ijara shartnoma), kichik mexanizatsiya va boshqalarga ega bo'lishi; ishtirokchi korxonaning ustav fondi, ko'char va ko'chmas mulklari va umumiyligi

ma'lumotlar;

ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarining mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar; tanlov ob'ektiga o'xhash ob'ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov ob'ektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (50 foizdan kam bo'limgan xolda);

tanlov ishtirokchilari tanlovda qatnashish to'g'risidagi takliflarni va tanlov hujjalarni etender.uzex.uz saytidan olishlari mumkin hamda ushbu saytda ko'rsatilgan e'lonning barcha talablariga mos ravishda hujjalarni elektron taqdim etadilar.

3.3. Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'lik faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Quyidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi: qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilish), soliqdan qarzdorligi mavjudligi, tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, holding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

4.TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH

4.1. Ishtirokchilar o'z takliflarini elektron ko'rinishda (etender.uzex.uz) portaliga elektron tanlovlardan o'tkazish uchun joylashtirishli lozim.

4.2. Tanlov uchun takliflar etender.uzex.uz saytdagi talablarga mos ravishda tegishli ilovalar va xujjalarni taqdim etishlari, ma'lumotlar "Buyurtmachi" va "Ishtirokchi" ixtiyoriga ko'ra o'zbek yoki rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.3. Tanlov hujjalari quyidagilar taqdim etilishi lozim:

-Texnik qism, "Buyurtmachi" tomonidan qo'yilgan texnik talablarni va bajariladigan ish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak;

4.4. Tanlov ishtirokchisi:

-faqat bitta taklif berishi mumkin;

- taqdim etilayotgan hujjatlarning haqiqiyligi va ma'lumotlarning haqqoniyligiga to'liq javobgar bo'ladilar hamda taqdim etilgan hujjatlarning qalbaki ekanligi aniqlansa tanlov savdolaridan chetlashtiriladi;
- takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

5.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Ushbu tanlov hujjatlari "Davlat xaridlari to'g'risida" gi (22.04.2021 yil O'RQ-684) xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"(20.05.2022 yil №276) ga muvofiq tanlov-tenderlar amalga oshiriladi.

5.2. Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha majburdir.

5.3. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan barcha xujjatlarni xaqiqiyligi va to'g'riliqa javobgardir. G'olib ishtirokchi deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda shartnomaga tuzishga majburdir.

6.BOSHQA SHARTLAR

6.1. Davlat buyurtmachisi tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

6.2. Tanlov ishtirokchisi tanlov hujjatlari qoidalarini tanlov o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga so'rov yuborishga haqli. So'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga belgilangan shaklda javob yuborishi shart. Tanlov hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

6.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

6.4. Tanlovning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlov natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

6.5 Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.